

QORAKO'L QADIMIY MASKAN

Karomatova Jasmina Sheraliyevna

Buxoro davlat pedagogika instituti

Pedagogika va ijtimoiy fanlar fakulteti 2/1-TAR-24 guruh talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20280553>

Annotatsiya. Ushbu maqolada Qorako'l tumani tarixi va uning o'rganilishi, uning rivojlanish jarayonlari yaqqol ko'rsatiladi. Shuningdek, tuman iqtisodiy rivoji, ta'lim, tumandagi tarixiy obidalar va ularning bugungi kundagi ahamiyatiga alohida urg'u beriladi.

Kalit so'zlar: Qorako'l, Buxayrayi Somjan, Bahr ul-Buxoro, Madina-al-tujjor, Anaxita, zardushtiylik, Zamonbobo, Boykand.

Kirish. Buxoro qadimdan Markaziy Osiyoning eng muhim tarixiy va madaniy markazlaridan biri sifatida shakllangan. Ushbu hudud atrofida joylashgan maskanlar ham uning ta'sirida rivojlanib, o'ziga xos tarixiy taraqqiyot yo'lini bosib o'tgan. Mintaqa asrlar davomida ilm-fan, savdo va madaniyat rivoj topgan yirik markazlardan biri sifatida tarixda muhim o'rin egallagan. Bu hudud nafaqat siyosiy va iqtisodiy jihatdan, balki ma'naviy hayotda ham katta ta'sir kuchiga ega bo'lgan. Shu nuqtai nazardan qaralganda, Qorako'l hududi ham mintaqaning ajralmas qismi sifatida e'tiborni tortadi. U yerda kechgan tarixiy jarayonlar, aholi turmush tarzi hamda xo'jalik faoliyati o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularni o'rganish muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Buxoro tarixiy paydo bo'lgan joyini hech qachon o'zgartirmagan va hozirgacha ilk vujudga kelgan hududda qad ko'tarib turgan qadimiy shahar. Shahar bundan 2500 yil oldin uchta tepalik ustida vujudga kelgan [1.26 b.]. Buxoro kabi undagi har bir hudud o'z tarixiga ega.

Qorako'l O'zbekiston Respublikasining Buxoro viloyati tarkibidagi muhim ma'muriy-hududiy birliklardan biri bo'lib, o'zining tarixiy shakllanish jarayoni, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi hamda tabiiy-geografik xususiyatlari bilan ajralib turadi. Hududning geografik joylashuvi, iqlim sharoiti va tabiiy resurslari uning xo'jalik faoliyati yo'nalishlariga bevosita ta'sir ko'rsatgan.

Qorako'l qadimdan chorvachilik, xususan qorako'lchilik sohasida yetakchi hududlardan biri sifatida tanilgan bo'lib, bu tarmoq nafaqat mahalliy iqtisodiyotning, balki respublika miqyosidagi eksport salohiyatining ham muhim omillaridan hisoblanadi. Shuningdek, hududning tarixiy taraqqiyoti, demografik ko'rsatkichlari va infratuzilma rivoji uni ilmiy tadqiq etish uchun dolzarb mavzuga aylantiradi. Qorako'l tumani Buxoro viloyatining janubiy-g'arbiy qismida joylashgan. 1926-yil 29-sentyabrda tashkil topgan. Shimoliy va shimoliy-sharqdan Jondor, janubiy-sharqdan Olot tumanlari bilan, janub va g'arbdan Turkmanistonning Lebap (avvalgi Chorjo'y) viloyati, shimoliy –g'arbdan Romitan tumani bilan chegaradosh. Tumanda bir shahar va bir necha mahalla fuqarolar yig'ini mavjud. Tuman hududi Zarafshon daryosining quyi oqimida, Qorako'l vohasida joylashgan [2.117 b.]. Umuman Qorako'l tumani hududi ibtidoiy madaniyat izlarini o'zida aks ettirgan mamlakatimizning qadimiy maskanlaridan biri. 1950-yillardan bu hudud arxeolog olimlarning diqqatini tortib, ularning keng miqyosdagi arxeologik tadqiqot ob'ektiga aylandi. Ya.G'ulomov, A.Muhammadjonov, A.Asqarov, J.Mirzaahmedov kabi milliy

arxeologiyamizning jonkuyar namoyandalari hududda keng ko‘lamli arxeologik izlanishlar olib bordilar. Ularning aniqlashicha, qadimda hozirgi Qorako‘l tumani hududida ulkan ko‘l bo‘lib, unga Qashqadaryo tomondan va Zarafshon daryosi orqali doimiy ravishda suv oqib turgan.

Keyinchalik “Qorako‘l” geografik atamasining paydo bo‘lishi ham tumanning qadimiy geografik o‘rni bilan bog‘liq. Bu ko‘l o‘rta asr yozma manbalarida Buxayrayi “Somjan”, ya‘ni Somjan dengizi, “Bahr ul-Buxoro” – Buxoro dengizi va boshqa bir qancha atamalar bilan nomlangan.

Turklar uni “Dengiz” yoki “Qorako‘l” deb yuritishgan [3.117-118 b.]. Qoraxoniylar hukmdori Arslonxonning vafotidan keyingi davrga oid manbalarda Boykand emas, balki Qorako‘l nomi qayd etila borgan [4.59 b.]. Qorako‘l hududida joylashgan bronza davriga oid Zamonbobo ibtidoiy madaniyat manzilgohi nafaqat Buxoro vohasi, balki butun mamlakatimiz ibtidoiy davri tarixida alohida ahamiyatga ega. Bu yerdan ibtidoiy dehqonchilik bilan shug‘ullangan odamlarning manzilgohi topilib, ular o‘sha davrning ijtimoiy turmushi, dehqonchilik madaniyati, dafn marosimlari, diniy tasavvurlari to‘g‘risida bahs yuritadi.

Ayniqsa Zamonbobo ko‘lidan 500 metr sharqroqda joylashgan ibtidoiy dehqonlarning turarjoy qoldiqlari, ya‘ni yarim yerto‘la va ikki chayla, qorako‘lliklarning ilk dehqonchilik tarixini to‘la tasavvur qilish imkoniyatini yaratadi [5.118 b.]. Zamonbobolik ibtidoiy dehqonlar qabristoni 1950-yilda Y. G‘ulomov tomonidan topilib, 1951-1953-yillarda qazib o‘rganildi. Islomdan oldingi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar, diniy tasavvurlar, tibbiyot ilmi, madaniyat to‘g‘risida ma‘lumot beruvchi Poykent yodgorligi Qorako‘l hududida joylashgan [6.118 b.]. Buxoro vohasining eng qadimgi shaharlaridan biri, tarixiy manbalarda “Madina-al-tujjor” – “Savdogarlar shahri” deb ta‘riflangan qadimgi Poykent So‘g‘diyoning janubiy-g‘arbiy chegarasidagi shahar bo‘lgan.

Shaharning paydo bo‘lishi, moziyning uzoq o‘tmishlariga borib taqaladi [7.14 b.].

Poykentni jezdan qurilgan shahriston deb atashgan. Qadimgi Poykentda ilm-fan ham o‘z davrida yuqori darajada bo‘lgan. Fiqh, falsafa va hadisshunoslik sohalarida yetuk olimlar yetishib chiqqan. Poykent arablar istilosigacha va undan keyin ham (garchi turli davrlarda bosqinchilar tomonidan buzilgan bo‘lsada) rivojlangan shahar edi. Buyuk ipak yo‘lida joylashganligi hamda islom dini kirib kelishi ilm-fan, madaniyatning rivojlanishiga sabab bo‘lgan. Shuning uchun ham Poykentdan nafaqat Markaziy Osiyo, balki dunyoga mashhur olimlar yetishib chiqqan hamda o‘z davrida jahon sivilizatsiyasiga munosib hissa qo‘shishgan [8.14 b.].

Ulardan biri Abul Fazl Ahmad ibn Ali as Sulaymon al Baykandiydir. Bu zoti sharif to‘rt yuzta asarning muallifi hisoblanadi. Muborak qabrlari Baykanddadir [9.70 b.]. XIX asrning II-yarmidan rus tarixchi tadqiqotchilari Qadimgi Poykent shahri xarobalarini o‘rganish bilan qiziqqa boshlagan. 1897-yilda podpolkovnik I.T. Poslavskiy shahar xarobalarini aylanib chiqqan va bu haqda ma‘lumotlar yozib qoldirgan. 1913-1914 yillarda arxeolog L.A. Zimin shaharning Somoniylar va Qoraxoniylar davriga mansub bir necha xonalarini ochib o‘rgangan, hamda qiziqarli numizmatika va sopol materiallarini to‘plagan. 1981-yildan e‘tiboran hozirgacha bu yerda O‘zbekiston Respublikasi F.A.Arxeologiya Instituti va Rossiya Davlat Ermitaji hamkorligidagi Buxoro arxeologik ekspeditsiyasi o‘z tadqiqotlarini olib borib, shahar hayotining turli davrlariga oid juda ko‘plab ma‘lumotlarni yig‘di. Qariyb 10 mingga yaqin noyob arxeologik eksponatlar to‘plandi.

Shular asosida Buxoro davlat muzeyi qo‘riqxonasi Qadimgi Poykent tarixi muzeyi tashkil etildi. Muzeyda tariximiz, o‘tmish san‘atimiz va hunarmandchiligimizning turli yo‘nalishlarini o‘zida aks ettirgan ajoyib ekspozitsiyalar faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Muzeyning ilk o‘rta asrlarni yorituvchi zalida Poykentdan topilgan sopol terrakota-ayol ma‘buda haykalchasi namoyishga qo‘yilgan. Bu haykalcha So‘g‘dning janubiy-g‘arbidagi Poykent shahridan topilgan eng qadimgi san‘at namunalaridan biri bo‘lib, V- VI asrlarga mansubdir. Ayol ma‘buda haykalchasi zardushtiylik an‘analari asosida maxsus qolipda qo‘yilgan bo‘lib, zardushtiylik e‘tiqodidagi Anaxita timsoliga o‘xshab ketadi. Ushbu haykalcha bilan birga, muzeyda qariyb shu davrlarga mansub, budda haykalchasining bosh qismi (4,9 sm), qo‘lida pazux-(aso) ushlagan noaniq erkak personaj (ehtimol qadimgi xudolardan biridir, balandligi 10,12 sm) namoyish qilingan.

Bu keyingi ikki shakl ham sopolidan ishlangan bo‘lib, maxsus qolipda qo‘yilgan hamda shu usulda tayyorlangan ko‘p sonli mahsulotlardan nusxalar bo‘lsa ajab emas. X-XI asr Poykent kulolchiligida ilgarigi an‘analar hali davom etayotganligini ko‘rish mumkin. Qadimgi Poykent tarixi muzeyida saqlanayotgan X-XI asrlar kulolchilik mahsulotlarida turli xil hayvonlar va qushlar tasvirlari uchraydi. Poykentda hali biron joyda uchramagan X-XI asrlarga mansub, islomiy va handasaviy mavzular yassi va yupqa bezaklar orqali tasvirlangan ganchkorlik kompozitsiyalari oddiy shaharliklar xonadonlaridan topilgan [10.15-17 b.]. Boykand milodiy eraning boshlaridan boshlab bronza, jez, kumush, oltin va shisha ishlab chiqarishda yetakchilik qilgan, shuning uchun ham bu shahar Buyuk ipak yo‘lida So‘g‘dionaning asosiy shaharlaridan biri bo‘lgan. Eramizning IV-XI asrlari oralig‘ida Sharq va G‘arb mamlakatlariga shisha idishlar, buyumlar xuddi anashu yerdan tarqalgan. Sog‘diyona, xususan, Boykandda ham III-IV asrlarda shisha ishlab chiqaruvchi hunarmandlar mahallaari bo‘lgan. Eronda shisha tayyorlashga VI-VIII asrlarda, boshqa o‘lkalarda esa VIII asrning ikkinchi yarmidan keyin kirishilgan. Bu mahallalardagi hunarmandlar o‘z faoliyatlarini to Boykand shahri xarobaga aylanganicha, XI-XII asrlargacha davom ettirganlar.

Boykand ilk o‘rta asrlardan keyin ham shishasozlik markazlaridan biri darajasiga ko‘tarilgan. Buni shahar atrofida shisha xom ashyolarining nihoyatda ko‘pligi, shisha ishlab chiqarish jarayonida yuzaga keladigan kimyoviy moddalari qoldiqlari, rudalar eritmalari, shisha buyumlari namunalari ham isbotlaydi [11.40 b.].

O‘zbek xalqining yuksak madaniyati va san‘ati taraqqiyotida xalqimizning o‘tmishi, qadimiy ajdodlar, turmush tarzi, voqelikni o‘zlashtirish va o‘zgartirish, shuningdek, badiiy-estetik dunyoqarashlaridan guvohlik beruvchi qadimgi Poykent shahar qoldiqlarining o‘rni juda katta bo‘lib bugungi avlod, ayniqsa, yoshlar ma‘naviyatini yuksaltirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Qorako‘l o‘rta asrlarda, ayniqsa shayboniy Abdullaxon (1557-1598) davrida muhim strategik ahamiyatga molik manzil sifatida xonlik siyosiy hayotida salmoqli o‘rin tutgan [12.118 b.]. Bundan tashqari bir qancha tarixiy yodgorliklarga ega bu hudud asrlar mobaynida o‘zgarib kelmoqda. Hazrat Chibirdon Ota ziyoratgohi Qorako‘l tumanidadir. U yerda katta maqbara mavjud. Temuriylar davrida juda ko‘plab imoratlar, madrasalar, maqbaralar, xonaqohlar masjidlar va bozorlar bunyod etilgan. Shulardan biri Chibirdon ota yoki Shirburdon ota maqbarasi bo‘lib, u chorvadorlar piri, avliyo sifatida nom chiqargan Shirburdon ota sharafiga Temuriylar davrida qurilgan.

Chiburdon ota maqbaralar majmuasi arxeolog olim Y. G'ulomov tomonidan 1952-yilda o'rganilgan. Maqbaraning peshtoq qismi o'zidan sharq tomonda joylashgan sakkiz burchakli maqbaraga qarab turadi. Peshtoqning yuqori qismida beshta ravochkalar, ikki burchagida minorasimon guldastalar qurilgan. Maqbaraning go'rxona va chillaxonalari diametri 4 metr hajmdagi pastroq qilib qurilgan gumbazlar bilan yopilgan. Go'rxonadagi qabrlar ustiga terilgan xom g'isht hisobiga yerdan biroz ko'tarilgan. Binoning o'lchovi 14,5 x 10,5 metrga teng.

G'ishtlarining hajmi 32x21x17 sm.li bo'lib, ular go'rlarning yer osti qismiga ham terilgan.

Go'rxonaning dastlab to'rtta eshigi bo'lgan. Shimoliy va janubiy devorlaridagi eshiklar bir-biriga simmetrik joylashgan bo'lib, g'arbiy devorda esa, ikkita bir xil o'lchamli eshiklar bo'lgan. Yana bir ko'zga tashlangan ziyoratgohlardan biri bu Qobul ota jome masjididir [13.71 b.]. Qobul ota jome masjidi tumanning olis yerida tashkil topib, yangi jome masjidining ichki qismi qariyb 5000, tashqi hovlisi 1000 dan ortiq Bnamozxonni sig'dira oladi [№59].

Mustaqillik yillari, ayniqsa keyingi to'rt yilda Qorako'lda ijtimoiy-iqtisodiy, maorif, madaniyat sohalarida yuz bergan ulkan ijobiy o'zgarishlar tumanning respublika miqyosidagi nufuzini ko'tardi [15.118 b.]. Tumanda Yangi O'zbekiston" massivi tashkil qilindi. O'tgan asr mobaynida massivda 330 o'ringa mo'ljallangan maktab, shuningdek 240 o'rinli davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti, davlat-xususiy sherikchiligi asosida 120 o'rinli zamonaviy bolalar bog'chasi va 100 qatnov o'rniga mo'ljallangan oilaviy poliklinika binolari ham qurib bitkazildi [16.№59]. Massivda mehmonlar uchun barcha kerakli shart-sharoitlar hozirlangan. Qurilgan sanoat korxonalarining ham iqtisodiy sohadagi salmog'i yuqori. "Qorako'lteks" O'zbekiston-Amerika qo'shma korxonasi, "Paykentteks" va "Qorako'l-tayorlov savdo", Qorako'l un kombinati, Germaniya texnologiyasiga asoslangan non sexlari, Qorako'l g'isht zavodi, Qorako'l paxta tozalash zavodi va boshqa sanoat korxonalari, umuman olganda, 2357 ta yuridik, 947 ta jismoniy shaxs sanoat, qishloq xo'jaligi, xizmat ko'rsatish, qurilish, hunarmandchilik kabi sohalarda unumli faoliyat olib borishmoqda [17. 196 b.]. Shaharda bunyod etilgan yangi teatr binosi ushbu san'at sohasining joylardagi rivojini ta'minlashga benihoya ulkan hissa qo'shadi. Qorako'l shahridagi aniq fanlarga ixtisoslashgan maxsus litsey nafaqat mamlakatimizda, balki butun dunyoda mashhur. Bu yerda tahsil olayotgan o'quvchilar jahon fan olimpiadalarida sovrinli o'rinlarni egallab, O'zbekiston ilm fanini dunyoga tanitmoqdalar. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning tashabbusi bilan Qorako'l matematika maktabi tajribasi bugungi kunda butun mamlakatimiz bo'ylab ommalashmoqda [18. 196 b.].

Xulosa o'rnida shuni aytib o'tamizki, Qorako'l O'zbekistonning chekka tumanlaridan biri hisoblanib, bu hudud uzoq tarixiy o'tmishga ega. Qorako'l har bir davrda o'z sayqalini va jozibasini yo'qotmay kelayotgan bir tarixiy obyekt sifatida butun O'zbekistonning faxriga aylanib ulgurdi. Hatto ashtarxoniyalar hukmdorlari Ubaydullaxon va Abdulazizxon hukmronligi davrida ham toj-u taxt uchun kurashlarda Qorako'l va undagi o'zbek qabilalari asosiy tayanch kuch bo'lib xizmat qildi. Bugungi kunda ham ushbu hudud o'zining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi shuningdek, ta'lim sohasidagi o'zgarishlari bilan boshqa tumanlardan farqli yuksalib kelmoqda. Qorako'l tumanidagi Acharya Universiteti fikrimizga yaqqol misol bo'la oladi. Ushbu mashhur Universitetning aynan Qorako'lda qurilganiga, biz tumanning asosan IT sohasi, matematika va tarix sohalarida yuksak yutuqlarga erishayotganini misol qilib olishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. H. To'rayev "Buxoro toponimikasi" "Durdona" Buxoro-2021 B- 26
2. H. To'rayev "Buxoro toponimikasi" "Durdona" Buxoro-2021 B-117
3. H. To'rayev "Buxoro toponimikasi" "Durdona" Buxoro-2021 B-117-118
4. B. Mirzaqulov "Qorako'l tarix silsilasida" Toshkent-2015 B-59
5. H. To'rayev "Buxoro toponimikasi" "Durdona" Buxoro-2021 B-118
6. H. To'rayev "Buxoro toponimikasi" "Durdona" Buxoro-2021 B-118
7. F. Bobojonova "Buxoro me'moriy obidalari tarixi". Buxoro fan va ta'lim nashriyoti -2022. B-14
8. F. Bobojonova "Buxoro me'moriy obidalari tarixi". Buxoro fan va ta'lim nashriyoti - 2022.B-14
9. Sadridin Salim Buxoriy "Buxoroning tabarruk ziyoratgohlari" "Durdona"-2012. B-70
10. F.Bobojonova "Buxoro me'moriy obidalari tarixi" Buxoro fan va ta'lim nashriyoti -2022. B-15-17
11. B. Mirzaqulov "Qorako'l tarix silsilasida" Toshkent-2015 B-40
12. H. To'rayev "Buxoro toponimikasi" "Durdona" Buxoro-2021 B-118
13. B. Mirzaqulov "Qorako'l tarix silsilasida" Toshkent-2015 B-71
14. Buxoro gazetasi, 2024-yil 16-avgust № 59
15. To'rayev "Buxoro toponimikasi" "Durdona" Buxoro-2021 B-118
16. Buxoronoma gazetasi, 2024-yil 16-avgust №59
17. B.Mirzaqulov "Qorako'l tarix silsilasida" Toshkent-2015 B-196
18. H. To'rayev "Buxoro toponimikasi" "Durdona" Buxoro-2021 B-118